Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320359

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV BARQARORLIKNI OSHIRISHDA ESG KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI

KASIMOV AZAMAT ABDUKARIMOVICH
TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasi professori v.b., i.f.d.

Bugungi iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida sanoat korxonalari faoliyatining barqarorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki keng qamrovli ekologik va ijtimoiy omillarga ham bog'liq bo'lib bormoqda. Jahon bozoridagi turbulentlik, resurslar tanqisligi, ekologik xavflar va korporativ mas'uliyatga bo'lgan talablar ESG konsepsiyasining ahamiyatini yanada oshirib, uni biznes modelining asosiy shartlaridan biriga aylantirmoqda. Korxonaning ekologik ta'sirini kamaytirish, ijtimoiy barqaror muhit yaratish va boshqaruv jarayonlarini shaffof tashkil etish – bugungi raqobatda ustunlikka erishishning muhim yo'nalishlaridan sanaladi.

Shu bilan birga, ESG ko'rsatkichlari korxonaning iqtisodiy natijalarini shakllantirishda ham katta rol o'ynamoqda. Har bir korxona uchun resurslarni tejash, xavflarni kamaytirish, investitsion ishonchni oshirish va mijozlar oldidagi nufuzni mustahkamlash ESG mezonlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro amaliyotda ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompaniyalar moliyaviy barqarorlikka tezroq erishishi, investitsiya oqimini ko'proq jalb etishi va uzoq muddatli strategiyalarni samarali amalga oshirishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham ESG mezonlarining ahamiyati ortib bormoqda. Sanoatni raqamlashtirish, "yashil texnologiyalar"ni joriy etish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sanoat korxonalarini ESG ko'rsatkichlariga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda. Bugungi sharoitda ESG nafaqat ekologik yoki ijtimoiy talab, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi strategik resurs sifatida talqin qilinmoqda.

Sanoat korxonalarida ESG ko'rsatkichlarini joriy etish korporativ barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan eng samarali mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlari korxona faoliyatini faqat ekologik va ijtimoiy jihatdan emas, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham tubdan o'zgartiradi. Korxona ESGga asoslangan faoliyat yuritganida, resurslardan foydalanish tartibi optimallashadi, xavflar oqilona boshqariladi va strategik qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflik oshadi. Bu esa iqtisodiy natijalarning barqaror va uzluksiz o'sishini ta'minlaydi.

Ekologik mezonlar bo'yicha amalga oshiriladigan choralar - energiya tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish - korxonaning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Ijtimoiy mezonlar esa xodimlar salomatligi, mehnat

Published: 05.06.2026

Cite this article: Kasimov Azamat Abdukarimovich (2026). Sanoat korxonalarida korporativ barqarorlikni oshirishda ESG ko'rsatkichlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320359

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

xavfsizligi, korporativ madaniyat va inson kapitaliga investitsiyalar orqali mehnat unumdorligini kuchaytiradi. Boshqaruv mezonlari - shaffoflik, hisobdorlik, tashqi audit va risk-menejment - korxonani investitsion jozibador subekga aylantiradi va kapitalga bo‘lgan kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Shunisi muhimki, ESG ko‘rsatkichlari korxonaning iqtisodiy samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bevosita ta’sir xarajatlarning qisqarishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va texnologik yangilanishda namoyon bo‘lsa, bilvosita ta’sir korporativ brendning kuchayishi, mijozlar ishonchi ortgani, investorlarning ehtiyoji o‘sishi hamda uzoq muddatli barqaror strategiyalarning amalga oshishida ko‘rinadi. ESG amaliyoti yuqori bo‘lgan kompaniyalar bozorda o‘z mavqeini mustahkam saqlab qoladi, tashqi shoklar sharoitida barqarorligini yo‘qotmaydi va innovatsiyalarga moyillikni kuchaytirgan holda iqtisodiy samaradorlikning yangi manbalarini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari ESG ko‘rsatkichlarining korporativ barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega ekanini yaqqol namoyon etdi. Sanoat korxonalari ESG talablariga mos faoliyat yuritgan holda resurslarni tejash, xarajatlarni optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va korporativ boshqaruvni kuchaytirish orqali o‘z iqtisodiy natijalarini yaxshilaydi. ESGning har bir komponenti - ekologik, ijtimoiy va boshqaruv - korxonaning samaradorlik modelini tubdan o‘zgartiradi va unga bozorda uzoq muddatli raqobat ustunligini taqdim etadi.

Umuman olganda, ESG ko‘rsatkichlarini amaliy faoliyatga joriy etish korxona uchun faqat axloqiy yoki ijtimoiy talab emas, balki iqtisodiy barqarorlikning zamonaviy asosidir. ESG mezonlari korxonaning xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtiradi, investitsiya oqimini kuchaytiradi, resurs tejamkorlik va innovatsiyani rag‘batlantiradi hamda korporativ barqarorlikni uzoq muddatga kafolatlaydi. Shu bois, ESGni korporativ rivojlanishning markaziy elementi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

ESG komponentlarining iqtisodiy samaradorlik va korporativ barqarorlikka ta’siri[261]

ESG komponenti	Korxonada ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy ta’sir	Korporativ barqarorlikka ta’sir
(E) Ekologik	Energiya tejamkor uskunalar, chiqindi kamaytirish, qayta ishlash	Tannarxning pasayishi, resurs tejamkorlik	Ekologik xavflar kamayadi, barqaror ishlab chiqarish
(S) Ijtimoiy	Mehnat xavfsizligi, xodimlar malakasi,	Mehnat unumdorligi	Inson kapitali rivojlanadi, ijtimoiy

[261] Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

	korporativ madaniyat	oshadi, kadrlar oqimi kamayadi	barqaror muhit
(G) Boshqaruv	Shaffoflik, tashqi audit, risk-menejment	Investitsiya oqimi oshadi, boshqaruv samaradorligi yuksaladi	Investorlar ishonchi oshadi, korporativ barqarorlik mustahkamlanadi

Ushbu jadvalda ESGning uch asosiy komponenti - ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv mezonlari - korxona faoliyatiga qanday yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatishi tizimli ravishda yoritilgan. Har bir komponentning korxonada namoyon bo‘ladigan amaliy ko‘rsatkichlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri va natijada korporativ barqarorlikka qo‘shadigan hissasi alohida taqqoslama tarzda bayon etilgan. Jadval ma’lumotlari ESG standartlarini joriy etishning kompleks ta’sirini namoyon etar ekan, ekologik chora-tadbirlar xarajatlarni kamaytirishi, ijtimoiy omillar inson kapitali sifatini oshirishi, boshqaruv mezonlari esa investitsiya jozibadorligini kuchaytirishi orqali korxonaning umumiy barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ko‘rsatib beradi. Shu tariqa, ESG ko‘rsatkichlari korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini mustahkamlovchi integral mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarida korporativ barqarorlikni oshirishda esg ko‘rsatkichlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini oshirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Sanoat korxonasi strategiyasiga ESG integratsiyasini majburiy qilish. Barqaror rivojlanish strategiyalari ESG mezonlari bilan uyg‘unlashtirilib, har bir bosqich bo‘yicha aniq ko‘rsatkichlar va mezonlar belgilab borilishi kerak;

2. Resurs tejash va energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan investitsiyalarni rag‘batlantirish. Energiya auditini yo‘lga qo‘yish, “yashil texnologiyalar”ni joriy etish va energiya tejovchi uskunalar xaridi uchun soliq imtiyozlari joriy etish maqsadga muvofiq;

3. Korporativ boshqaruvda shaffoflikni kuchaytirish. ESG hisobotlarini standartlashtirish, tashqi auditni yo‘lga qo‘yish va korxonada raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish lozim;

4. Ijtimoiy barqaror muhit yaratish va inson kapitaliga sarmoyani oshirish; Mehnat xavfsizligi, kasbiy malaka oshirish, korporativ madaniyatni rivojlantirish ESGning samaradorligi uchun asosiy omil hisoblanadi;

5. Innovatsion faoliyatni ESG talablari bilan uyg‘unlashtirish. Yashil innovatsiya markazlari, resurs tejamkor loyihalar va raqamli yechimlarni qo‘llab-quvvatlash korporativ barqarorlikni yanada mustahkamlaydi.